Tadqiqot.uz

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

## DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022




2022
MART
№38

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz
www.conferences.uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

# НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ КОНФЕРЕНЦИЙ: ЧАСТЬ-12

# NATIONAL RESEARCHES OF UZBEKISTAN: CONFERENCES SERIES: PART-12

ТОШКЕНТ-2022

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:”** мавзусидаги республика 38-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёр-лаш институти)

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

**1. G‘afforov Sardorbek Sunnatullayevich**
ESTRADA TEATRI SAN’ATIDA AKTYORLIK IJROSINING O‘ZIGA XOSLIGI.................7

## МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

### ESTRADA TEATRI SAN’ATIDA AKTYORLIK IJROSINING O‘ZIGA XOSLIGI

**G‘afforov Sardorbek Sunnatullayevich,**
O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti magistranti
Telefon: +998977025427
s.gaffarov@gmail.com

**ANNOTATSIYA.** Mazkur maqolada estrada teatri san’atida aktyorlik ijrosining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, unda dramatik, musiqali teatr aktyorlari ijrosi bevosita estrada teatri aktyori ijro uslublari bilan qiyosiy taqqoslanadi, ijrodagi indiviuallik, badihago‘ylik jarayonlari tadqiq etilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** san’at, teatr, estrada, estrada teatri, estrada aktyori, individuallik, badiha.

San’atkor san’atning qaysi turi bilan shug‘ullanmasin u ijodkorlikning eng sara namunalarini muxlislar e’tiboriga havola etish uchun intiladi. Va bu yo‘lda tinimsiz izlanish olib boradi. San’at qachon, qay vaqtda boshlanib, qay vaziyatda rivojlanishiga qaramay, har doim u kishilar hayotini quvonchga, zavq-shavqqa to‘ldirishda, jamiyat ma’naviyatini o‘stirishda, barkamol avlodlarni tarbiyalashda muhim bir vosita bo‘lib qolaveradi.

“Sahnaning yagona shohi va hukmroni – iste’dodli aktyordir. Dramaturg fikrini izhor qiladigan ham, rejissor talqiniga jon kiritadigan ham, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqotda bo‘lib, unga zavq-shavq bag‘ishlaydigan ham, uni fikr yuritishga majbur qiladigan ham aktyordir” [3].

Aktyorlik sharafli, faxrli shu bilan birga mashaqqatli kasb hamdir. Aktyorlik birgina iste’dod yoki mahorat bilan emas, balki kuchli bilim, sabr-toqat, did va farosat, go‘zallik va nafosat orqali erishiladigan mo‘jizakor va sehrli kasbdir.

Aktyor – muallif fikrini, rejissor talqinini tomoshabinga yetkazadigan, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqot qiladigan, unga zavq bag‘ishlab, fikr yuritishga undaydigan san’atkor.

Ko‘pincha estrada teatrini bir aktyor teatri deb nomlaydilar. Bunda bir aktyor – dramaturg, rejissor, rassomning aytmoqchi bo‘lgan gapini bir o‘zi tomoshabinga yetkazishni zimmasiga oladi. Sahnada kichik syujetdagi boshqa qahramonlarni ham ijro qilish huquqini qo‘lga kiritadi. Bu aynan bir aktyorga mo‘ljallangan va qiyofani tez o‘zgartira olish bilan bog‘liq estrada janri ekanligini nazarda tutish lozim.

Estrada aktyori spektakl g‘oyasini, konsert, nomer mazmunini yelkasiga olib sahnaga chiqar ekan, har bir so‘z, har bir ibora ifodali ijro etilishi, plastik ifodaviylik bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilishi lozim. Shuning bilan birga asarni o‘qib, qahramoni kim ekanligini, hayot yo‘lini, xarakteri, qiziqishlari va maqsadini aniqlab olishi zarur. Shundagina muallif tasvirlagan, rejissor xayolidagi obraz yaratilishi mumkin. Obraz yaratishda boshqa san’at turlaridan foydalanish rejissorning qobiliyati va iqtidoriga bog‘liq.

Estrada aktyorining musiqali teatr aktyori, drama aktyoridan farqi nimada? Dramatik aktyorni spektaklning tempo-ritmi boshqaradi. Uni his qilgan aktyor shunga asoslanib o‘z obrazini yaratadi. Dramatik aktyorda so‘z san’ati muhim ahamiyatga ega [2].

Musiqali teatrda musiqa spektaklga jon bag‘ishlaydi. Musiqa bilan boyitilgan asarning voqealari kuy va qo‘shiqlar orqali bir-biri bilan bog‘lanadi. So‘zdan asar dunyoga keladi, so‘zdan qo‘shiq yaraladi. Sahnadagi qahramonning ichki iztirobi kuchayib, quvonch yoki hasrat cheksiz bo‘lganda, so‘z bilan ifodalab bo‘lmas holat – qo‘shiq va kuy orqali tomoshabinga yetkazib beriladi.

Musiqali teatr aktyori qahramon nutqi orqali dardini ochadi, dardning avj pardalarida kuylash orqali yaxlit holatni sahnada yarata oladi. U sahnada obraz yaratishga kirishar ekan, o‘z qahramonining bosh maqsadini va yetakchi xatti-harakatini belgilab, shu asosda roldagi so‘z va musiqaviy qismlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlab oladi.

Musiqali teatr aktyorining so‘zdan kuyga yoki kuydan so‘zga o‘tishda uzviylikni yo‘qotmasligi, uning mahorat darajasini belgilaydi. Bu jarayonda organik holat buzilsa, xatti-harakat izchilligi yo‘qoladi, ijroda sun’iylik va yuzakilik paydo bo‘ladi.

Estrada aktyori esa drama aktyorida kuzatiladigan tempo-ritmni, so‘z san’atini ham, musiqali teatr aktyorining asosiy xususiyati hisoblangan vokal imkoniyatlarini ham o‘zida mujassam etadi.

Estrada tomoshalarda aktyor rol ijro etish orqali hayot manzaralarini jonlantiruvchi badiiy bayonchi sifatida ko‘rinadi. Shu xol uning kasbiy darajasi yuqori va ko‘p qirrali bo‘lishini taqozo etadi. Yuzlab tomoshabinlar ko‘z o‘ngida harakat qiluvchi estrada aktyori ijodkor sifatida ham ma’naviy komil shaxs sifatida ham o‘zini ko‘rsata olishi lozim bo‘ladi. Bu esa estrada aktyori naqadar ko‘p qirrali iste’dod egasi va tayyorgarligi yetarli bo‘lishi o‘z-o‘zidan ma’lum.

Tomoshabin sahnada turgan aktyorni saviya, madaniyat jihatidan yetarli darajada emasligini sezdimi, unday san’atkorni o‘zini ham, san’atini ham tan olmaydi. Estrada aktyori o‘z individualligini nafaqat qo‘shiq bilan balki, sahnada o‘zini tuta bilishi, ochiqligi, badihago‘yligi, tomoshabinlar bilan muloqotga kirisha olishi shuningdek plastika, grim va libosda, o‘z nomerini ssenografik ko‘rinishini yana boshqa ifoda vositalari (chiroq, musiqa, rekvizit) bilan erkin ifodalay olishi kerak.

Estrada aktyori hikoya qiladi, voqeani tasvirlaydi, ommaga namoyish etadi. Kasbiy mahoratini oshirishda estrada san’atining barcha janrlaridan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, ulardan unumli foydalana olishi professionallikka yetaklaydi.

Estrada teatr aktyori tomoshabindan yumor hissi mavjudligini, komediya obrazini albatta tushunish xislati borligini nazarda tutadi. Nuqsonlar ustidan kulish bu insonning ahloqiy sog‘lomlashayotganidan darak beradi. Mubolag‘adan foydalanayotganda estrada aktyori meyorni his etish lozim bo‘ladi.

Bu haqda komik aktyor Charli Chaplin shunday degan edi – “Men juda oshirib yuborishdan yoki birovning biror nozik joyiga tegib ketishdan qo‘rqib turaman. Mubolag‘ani faqat yaxshi kulgi bilan tekislab ketish mumkin” [1].

Estrada aktyorining o‘ziga xosligi dramatiklik va komiklik, tragiklik va ekssentriklikni o‘zaro uyg‘unlashtirib yuborishida ko‘rinadi. Bunga XX asrning buyuk komik aktyori Charli Chaplin ijodiy faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. U rejissor va aktyor sifatida bir necha ovozsiz filmlar suratga olgan. Ushbu filmlar ovozsiz bo‘lsa-da, mahoratli aktyorning plastik xatti-harakatlari bilan kino nima haqidaligini bilish mumkin. Charli Chaplinning o‘ziga xos yurishi, shlyapasi, hassasi, mo‘ylovi kabi ifodaviy elementlari bilan elga tanilgan. U bir aktyor bilan so‘zsiz, plastik harakatlar orqali ham tomoshabinni hayratlantirish mumkinligini ko‘rsatdi.

Estradaning yengil idrok etilish, ommaboplik, tomoshaboplik hususiyatlari uning mazmundorligiga ta’sir qilmaydi. Boshqa san’atlar singari estrada ham o‘z vositalari bilan davr in’ikosini aks ettiradi va madaniyat rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Xulosa sifatida aytish lozimki estrada san’atining bosh mezoni G‘arb san’ati yoki Sharq san’atida bo‘lsin madaniy hordiq berish bilan birgalikda estetik zavq ulashish, ma’naviy komillikka yetaklash hamda insonlarni ijodkorlikka chorlash, optimistik kayfiyat ulashishdan iborat bo‘lgan.

Estrada aktyori ijodining yaxlit o‘ziga xosligi sifatida individuallik va obraz yaratish jarayonida badihago‘ylik xarakteri asosiy mezon ekanligini qayd etish lozim. Aynan shu jihati bilan ham dramatik teatr aktyoridan farqlanib, u tomonidan yaratilgan nomer faqat o‘sha aktyor ijodiga xosligi va takrorlanmasligi bilan ahamiyatlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Egamberdiyev F.T. Estrada san’ati metodologiyasi va texnologiyasi. – Toshkent: Lesson Press, - 160 b.
2. Rizayev O. Nabi Rahimov: Ijodiy portret. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1997. – B. 5-6.
3. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 303 b.

# ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 12-ҚИСМ

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000